

BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Muminova Elnoraxon Abdulkarimovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti professori

Annotatsiya - Maqolada to‘qimachilik sanoati korxonalari faoliyatini samarali boshqarishda raqamli, xususan blokcheyn texnologiyalarini joriy etish mexanizmi ishlab chiqilgan. Unda boshqaruv ta’sirini kuchaytirishga xizmat qiluvchi yangi yondashuvlar taklif etilib, raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, ularning iqtisodiy samaradorligini baholash hamda korxona faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tizimi yoritib berilgan. Shuningdek, davlat boshqaruv organlari, korxona va loyihalar darajasida boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali korxona iqtisodiy samaradorligini oshirish imkonini beruvchi kompleks yechimlar asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: blokcheyn texnologiyasi, raqamli texnologiyalar, korporativ boshqaruv, neyron tarmoq, aksiyadorlar.

KIRISH

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ochiqlik, xalqaro iqtisodiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi yurtimizda sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash imkoniyatlarini yuzaga keltirdi. Ma’lumki, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot qo‘shimcha qiymat yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiyot tarmoqlaridagi amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida raqamli axborotlar ta’siri asosida kuzatilayotgan jarayonlar korporativ biznesning strategik rivojlanishida asosiy hal qiluvchi kuchga ega bo‘lmoqda. Jahonda raqamli aktivlar bo‘yicha global ishtirokchilar sifatida “North Plains Systems Corporation”, “Open Text Corporation”, “Widen”, “Net Exposure, Inc.”, “Media Beacon, Inc.”, “Hewlett-Packard Company”, “WebDAM” kabi yirik xalqaro korporatsiyalarni misol qilib keltirish mumkin.

Raqamli iqtisodiyot (Digital Economy) deganda, raqamli kommunikatsiyalar, IT yordamida olib boriladigan iqtisodiyot tushuniladi. Bunda, yashirin iqtisodiyotga barham berish vositasi sifatida ham qarash mumkin. Chunki birinchidan, barcha operatsiyalar elektron ro‘yxatdan o‘tilishiga, ikkinchidan shaffof bo‘lishiga erishiladi. Qolaversa, ishlab chiqarishda yangi IT texnologiyalar qo‘llanilishi tufayli mahsulot va

xizmatlarning tannarxi pasayishiga olib keladi¹¹.

Jahon bankining “Raqamli dividendlar” nomli tadqiqoti xulosalari mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli iqtisodiyotning naqadar dolzarb va muhim masala ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, internet tezligining 10 foizga o‘sishi mamlakat YAIM o‘sishiga olib keladi. Rivojlangan davlatlarda bu ko‘rsatkich 1,21 foizni tashkil etsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda 1,38 foizga teng. Demak, internet tezligi 2 barobar oshadigan bo‘lsa, YAIM hajmi 13-14 foiz ortishiga erishish mumkin¹².

METODOLOGIYA

Ushbu maqolada qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, qiyosiy tahlil, kuzatuv, nazariy va amaliy o‘rganish usullaridan foydalanilgan.

NATIJALAR QISMI

Bugungi kunda to‘qimachilik korxonalarida korporativ boshqaruvida amalga oshirilgan raqamli tizimlarni, blokcheyn texnologiyalar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. To‘qimachilik korxonalar moliyaviy boshqaruviga blokcheyn texnologiyasini joriy etish uchun bloklar reyestri, algoritmlar, operatsiyalar yoki shartnomalar havfsizligini ta‘minlash maqsadida xizmat qilishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ boshqaruv, hal qilinadigan vazifalarning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tarmoq ichida korporativ korxonalar faoliyatining barqarorligi oshishiga asos bo‘ladi.

Korporativ boshqaruvda mulkdorlarning o‘zaro munosabatlari darajasidagi eng murakkab qaror - bu aksiyadorlarning ustuvor yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirish va manfaatlarini muvofiqlashtirish jarayonini tashkil etishdir. Bizning fikrimizcha, raqamli texnologiyalar kompaniya aksiyadorlarning o‘zaro hamkorligi va muzokaralari jarayonidan halos bo‘lishga imkon bermaydi. Shuning uchun raqamli korporativ boshqaruv bunday aloqa mexanizmini emas, balki uni cheklash mexanizmini ta‘minlashi kerak.

Blokcheyn texnologiyadan foydalanish natijasida korxona bilan konragent aloqalarga kirishayotgan har bir shaxs to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni identifikatsiyalash, hamkor to‘g‘risida barcha ma‘lumotlarga ega bo‘lish va buning natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy risklarni kamaytirish mumkin bo‘ladi. Korxona faoliyatiga ta‘luqli bo‘lgan ma‘lumotlar bazasini konfidensialligini kafolatlash imkoniyatini mavjudligi, buxgalteriya kitobining ichki va tashqi audit o‘tkazish uchun qulayligi, barcha tranzaksiyalarni nazorat qilish, tranzaksion xarajat turlarini doimiy ravishda optimallashtirish imkoniyati, “aqlli shartnomalar” tizimini ishga tushirish imkoniyatining mavjudligi bilan tavsiflash mumkin. “Aqlli shartnomalar”ni ishga tushirish orqali korxona kelgusida har bir shartnomani individual tarzda nazorat qilib borish. Shartnoma turi bo‘yicha iqtisodiy, ijtimoiy, budjet samaradorligini aniqlab monitoring qilib borishi mumkinligi, korxona iqtisodiy salohiyatiga ijobiy va salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan shartnomalar va kontragentlarni aniqlab borishi, shartnoma

¹¹ <https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir>


¹² <https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir>

shartlarini o'z vaqtida amalga oshirish va amal qilish jarayonini tahlil qilib borishi, kontragentlar ta'siri doirasida korxonaning bankrot bo'lish riskini kamaytirishga, aniqlangan moliyaviy va iqtisodiy risklarni diversifikatsiyalash yoki xedjirlash amaliyotini qo'llashga imkoniyat yaratishi mumkin.

Korporatsiya ichidagi navbatdagi boshqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun boshqaruvning yuqori darajasi va boshqa xodimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni iyerarxik boshqarish mumkin (1-rasm).

Bunday yondashuv bilan korxona budjetini va faoliyat natijalarini tasdiqlashda yetarli diskret qiymatlar bo'lmaydi va aksiyadorlar nazorat jarayonini avtomatlashtirishga imkon beruvchi jarayonlarni (boshqaruv qarorlarining prognozli blokini) tasdiqlash uchun alohida qiymatdan harakat qilishlari kerak.

Shu bilan birga yetakchi darajadagi korxonalar past darajadagi korxonalarning boshqaruv jarayonlariga aralashish uchun aksiyadorning aralashuvini cheklash va muammolarni bartaraf etish uchun kiruvchi ma'lumotlarni to'g'ri baholash muhim hisoblanadi. Shu munosabat bilan aksiyadorning operatsion faoliyatga aralashish va korporativ boshqaruv g'oyasini buzish istagini oldini olish maqsadida korporatsiyaning umumiy natijalarini muayyan darajada shaffofligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.



1- rasm. Blokcheyn texnologiyasi orqali korporatsiya strategiyasini amalga oshirish mexanizmi¹³

¹³ Muallif ishlanmasi.

Ta'kidlash joizki, iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy tizimlar juda murakkabdir va turli shaxslarning harakatlari va qarama-qarshiliklari natijasidir, shuning uchun barcha mumkin bo'lgan harakatlar, qarama-qarshiliklar va mavjud cheklovlarni hisobga olgan holda to'liq matematik modelni yaratish juda murakkabdir. Foyda yoki daromadni maksimallashtirish kabi an'anaviy parametrlarga asoslangan modelni batafsil approksimatsiya (taxmin, yaqinlashtirish) qilish deyarli mumkin emas. Ushbu murakkab tizimlarda jamiyat va iqtisodiyotning xatti-harakatlariga bevosita taqlid qiluvchi modellardan foydalanish tabiiy va samarali bo'ladi. Bu esa aynan neyron tarmoqlar metodologiyasi taklif qilishi mumkin bo'lgan imkoniyatdir. Boshqaruvdagi neyron tarmoqlar yordamida yechilgan aksariyat masalalar inson faoliyatining boshqa sohalariga ham o'xshash bo'lib, bu masalalar tasniflash, empirik egri chiziqni qurilishi va vaqt qatorlarini tahlil qilish, klasterlash va optimallashtirish kabi to'rt toifaga bo'linadi.

Neyron tarmoqlar yordamida ko'plab vazifalar hal qilinmoqda jumladan: korxona boshqaruvi samaradorligini oshirish, sug'urta faoliyati, korxonalarga investitsiya kiritish maqsadida obligatsiyalar va korxonalar aksiyalarining stavkalarini aniqlash, bankrotlik hamda iqtisodiy va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini prognozlash.

MUXOKAMA QISMI.

Ushbu mavzu doirasida blokcheyn texnologiyasining salohiyati ko'rib chiqilib, bugungi kunda mazkur texnologiya asosida iqtisodiy taraqqiyotga erishgan mamlakatlarda faoliyat yuritayotgan olimlarning ilmiy izlanishlari tahlil etildi. Xususan, E. Brynjolfsson va B. Kahinlar tomonidan iqtisodiyotni raqamlashtirish masalalari ilk marotaba 1990 yillarning o'rtalarida muhokama mavzusi sifatida targ'ib qilinib, ilk ta'riflar keltirilib, mazkur ta'riflarda korxona va iste'molchilarni virtual dunyoda uchrashtiruvchi vosita sifatida e'tirof etildi.

S.Karnauxov korporativ boshqaruvga sinergetik samaralarning ma'lum bir to'plamini boshqarish deya ta'rif beradi¹⁴. Ammo bizning fikrimizcha, ushbu ta'riflar biznesning korporativ shakllaridan foydalanish natijalariga taalluqli bo'lib, muammoning mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi.

A.V.Zavalishin esa, aksincha, korporativ boshqaruv mazmunini "korporatsiyaning sof foydasini optimal taqsimlash va yangi korporativ investorlarni jalb qilish" masalalarini hal qilish bilan bog'laydi¹⁵. Korporatsiya sof foydasini taqsimlash (xususan, aksiyadorlarga dividend to'lovlari va qayta investitsiyalash o'rtasidagi mutanosiblikni aniqlash) masalasi korporativ boshqaruv tizimi bilan uzviy aloqada bo'lib, korporativ munosabatlar rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Raqamli iqtisodiyotning asosi bo'lgan muammolar bilan bog'liq masalalar, raqamli iqtisodiyotga o'tish mexanizmi, kriptografiyaning muhim elementi bo'lgan xeshlashtirish funksiyalari haqida bir qancha ma'lumotlar berilgan. Undan so'ng, kriptografiyadan raqamli valyutalarga o'tish mantiqi, kriptovalyutalarning asosiy

¹⁴ Карнаухов, С. (2000). Эффективность корпоративных структур. *Руск*, (1-2), 4.

¹⁵ Завалишин А.В. (2014). Тенденции развития рынка корпоративной собственности. *Вестник УрГУ*. (1-22), 7.

turlari va ularning xossalari akademik S.Gulyamov asarlarida o'z aksini topgan. S.Gulyamov raqamli itqisodiyotni asosini tashkil etuvchi "blokcheyn" texnologiyasini milliy itqisodiyotda qo'llanishi mumkin bo'lgan sohalarini aniq ko'rsatib o'tgan.

Ta'kidlash joizki, hozirgi paytda korporatsiyalar faoliyatining turli moliyaviy, ishlab chiqarish, kadrlar va boshqa tavsifnomalarini umumiy koordinata tizimida bog'lashga imkon beradigan korporatsiyalarni rivojlantirish samaradorligini kompleksli baholashning yagona, umume'tirof etilgan yondashuvi mavjud emas. Kompaniyalarni rivojlantirish samaradorligini tadqiq etishning kompleksli vositalaridan biri muvozanatlangan ko'rsatkichlar tizimi (BSC) tuzish usuli hisoblanib, unga 1990 yil amerikalik iqtisodchilar R.Kaplan va D.Norton tomonidan asos solingan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korxona boshqaruvida qo'llaniladigan biznes jarayonlarini avtomatlashtirish texnologiyasi ma'muriy ishlarni avtomatlashtirish bilan bog'liq va asosiy klassik boshqaruv funksiyalari (rejalashtirish, tashkil etish, faollashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat)ni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Bunday tizimlardan foydalanish, qarorlar qabul qilishning yuqori samaradorligini ta'minlash, axborot jarayonlarini birlashtirish, korxonaning hujjat aylanishini takomillashtirish, funksiyalarning takrorlanishini bartaraf etish, umuman olganda, ish samaradorligini oshirish va korxona faoliyati uchun axborotni qo'llab-quvvatlash xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi.

Taklif etilgan mexanizm to'qimachilik korxonalar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi mazkur jarayonda boshqaruv ta'sirlarini oshirishini ko'rsatadi. Bu yerda uskunalarning ishlash ishonchliligi, ishlab chiqarishni rejalashtirish tufayli mahsulot tannarxining oshishiga to'sqinlik qiluvchi asosiy vositalarni rejasiz ta'mirlash va sifatsiz mahsulotlar sonini kamaytirishning oldini olishga xizmat qiladi.

Ushbu mexanizmi tizimli va kompleks yondashuvlarni o'z ichiga olgan. Tizimli yondashuv to'qimachilik sanoati korxonalarini boshqarish jarayonlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishda amalga oshirilgan bo'lib, korxona darajasida boshqaruv jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etishni, uning loyihalarini va sanoat korxonalarining boshqaruv organini muvofiqlashtirishga hizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brynjolfsson E and Kahin,B,eds.(2002).Understanding the Digital Economy. Massachusetts Institute of Technology, Cambridge, MA. 2002. 48-50 p.
2. Гулямов, С. С., Аюпов, Р. Х., Абдуллаев, О. М., & Балтабаева, Г. Р. (2019). Рақамли иқтисодиётда блокчейн технологиялар. Т.: ТМИ., "Иқтисод-Молия" нашриёти, 8.
3. Нортон, Д., & Каплан, Р. (2022). Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию. Litres.
4. Муминова, Е.А. (2021). Направления совершенствования организационно-экономического механизма корпоративного управления в текстильной отрасли. Экономика и предпринимательство , (2), 779-784.

5. Abdukarimovna, M. E. (2020). The effectiveness of the use of blockchain technologies in sectors of the national economy. *South Asian Journal of Marketing & Management Research*, 10(6), 53-62.
6. Карнаухов, С. (2000). Эффективность корпоративных структур. *Риск*, (1-2), 4.
7. Завалишин А.В. (2014). Тенденции развития рынка корпоративной собственности. *Вестник УрГУ*. (1-22), 7.
8. Докукин С.С., Марухленко А.Л. Обзор блокчейна и его применение// Современные информационные технологии и информационная безопасность: Сборник научных статей Всерос. науч.-технической конф., Курск, 17 мая 2022 года. - Курск: Юго-Западный государственный университет, 2022. С. 17-24.
9. Илышева Н.Н., Каранина Е.В. Методологические аспекты формирования, оценки и совершенствования системы стратегического анализа и управления бизнес-рисками предприятия// Экономический анализ: теория и практика, 2014. № 11 (363). С. 23-30. 3.
10. Лавринович А.А., Краснова А.И. Использование системы прослеживаемости товаров на основе технологии блокчейн в интересах повышения эффективности системы управления рисками таможенных органов Российской Федерации// Бюллетень инновационных технологий, 2017. Т. 1, № 4. С. 52–55.
11. Росщупкина П.А. Блокчейн в корпоративном управлении// Вестник Российского нового университета. Серия: Человек и общество, 2020. № 3. С. 84-92.
12. Шайнурова О.С. Блокчейн как одна из основных технологий в управлении рисками// Современные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации: сб. статей X Междунар. науч.-практ. конф.: в 2 частях, Пенза, 23 января 2020 года. Часть 2. - Пенза: "Наука и Просвещение" (ИП Гуляев Г.Ю.), 2020. С. 21–23.
13. Ярошевич Н.Ю. Блокчейн в отраслевом стратегировании на промышленных рынках// VI-технологии и корпоративные информационные системы в оптимизации бизнес-процессов цифровой экономики: Материалы IX Междунар. науч.-практ. очно-заочной конференции, Екатеринбург, 02 декабря 2021 года / Отв. за выпуск:
14. А.Ю. Коковихин, Н.М. Сурнина, отв. редактор В.В. Городничев. - Екатеринбург: Уральский государственный экономический университет, 2022. С.106-108
15. <https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir>